

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTIQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O‘RNI
(Olima, murabbiy Azatgul Toshmatovaning faoliyati misolida)
Sharipov N.S.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Xalq cholg‘ularida ijrochilik rivojlanishining ko‘plab omillari mavjud. Shulardan asosiylari – sohada mehnat qilayotgan mutaxassis kadrlar bo‘lsa, yana bir omil bu zamon talablariga javob bera oladigan sifatli cholg‘ularni ijrochi-sozandalarga yetkazib berishdir. Mazkur maqola xalq cholg‘ularida ijrochilik sohasida ko‘p yillar davomida mehnat qilib kelayotgan va samarali natijalarni qo‘lga kiritgan olima, murabbiy Azatgul Raximovna Toshmatovaning faoliyatiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: cholg‘u, cholg‘u ijrochiligi, sozgarlik, san’at tarixi, tadqiqot.

Аннотация: Процесс развития исполнительства на народных музыкальных инструментах имеет ряд факторов. Основные из них – кадры-специалисты, которые трудятся в этой сфере и обеспечение музыкантов-исполнителей качественными музыкальными инструментами. Настоящая статья посвящена деятельности ученой, наставницы Азатгул Рахимовны Тошматовой, которая в течении многих лет трудится в сфере исполнительства на народных музыкальных инструментах и достигла значительных результатов.

Ключевые слова: музыкальный инструмент, инструментальное исполнительство, мастера-изготовители музыкальных инструментов, история искусства, исследование.

Annotation: The process of development of performance on folk musical instruments has a number of factors. The main ones are the specialists who work in this area and providing musicians with high-quality musical instruments. This article is dedicated to the work of the scientist, mentor Azatgul Rakhimovna Toshmatova, who has been working in the field of performance on folk musical instruments for many years and has achieved significant results.

Keywords: musical instrument, instrumental performance, musical instrument makers, art history, research.

Kirish. Har bir sohaning rivojlanishida shu soha mutaxassislari, o‘z kasbining fidoyilari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mutaxassislarning izlanishlari, ularning beminnat zahmatlari tufayli soha rivoj topadi, gullab yashnaydi.

Xalq musiqa cholgʻulari va unda ijrochilik masalalarini oʻrganish sanʼatshunoslikning eng muhim va qiziqarli sohalaridan biridir. Uning koʻplab badiiy xususiyatlarini tadqiq qilish olimlar oldida izlanishning cheksiz ufqlarini ochib beradi. “Shu bilan birga, - deb taʼkidlaydi I.Masievskiy, - xalq cholgʻu musiqasi amalda keyingi yillardagina maxsus tadqiqotlar obʼektiga aylandi va bu tadqiqotlarning tarixi bor-yoʻgʻi bir necha oʻn yillardan iborat” [1].

Asosiy qism. Cholgʻu ijrochiligi sanʼati boʻyicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarning zamonaviy tarixiga nazar soladigan boʻlsak, unda iqtidorli olim, mohir sozanda, mahoratli dirijyor va malakali pedagog, “Xalq cholgʻularida ijrochilik” kafedrasini professori, sanʼatshunoslik fanlari doktori, Oʻzbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi aʼzosi Azatgul Raximovna Toshmatova nomi yaqqol koʻzga tashlanadi. Oʻzining koʻp qirrali va sarmahsul faoliyati bilan u xalq cholgʻulari, milliy orkestr, cholgʻu ijrochiligi va musiqa pedagogikasi ilmiga oʻzining ulkan hissasini qoʻshdi.

Xalq cholgʻu madaniyatiga boʻlgan qiziqish va musiqa sanʼatidagi voqelikni tahlil qilish qobiliyati A.Toshmatovada Toshkent davlat konservatoriyada, afgʻon rubobi boʻyicha Gʻulomqodir Ergashev, dirijyorlik boʻyicha Anvar Hakimovich Liviev sinfida oʻqib yurgan kezlari dayoq namoyon boʻldi. Konservatoriyada oʻqish Azatgul uchun qiyin boʻlmadi, chunki absolyut (mutloq) eshitish qobiliyati, xotirada yaxshi saqlab qolish, oʻtkir zehn, musiqashunoslikka moyilligi, artistlik iqtidori, tinglovchilarning mehrini qozona olish kabi hislatlar unga tabiatdan tortiq qilingan edi.

A.Toshmatova bitiruv-malakaviy ish sifatida “Toʻxtasin Jalilov nomidagi davlat xalq cholgʻulari orkestrining ijrochilik faoliyati” mavzusini tanladi. Malakaviy ishni u A.H.Liviev rahbarligida bajarishga kirishdi. Ushbu murakkab mavzu ilmiy ishlanmasining yuqori darajada bajarilganligi kafedra oʻqituvchilarining tahsiniga sazovor boʻldi va A.Toshmatovaga kelajakda orkestr ijrochiligi masalalarini batafsil oʻrganishni davom ettirish tavsiya etildi.

Konservatoriyani aʼlo baholar bilan tugatib, A.Toshmatova “Musika tarixi va tanqid” kafedrasining musiqashunoslik mutaxassisligi boʻyicha aspiranturaga oʻqishga kirdi. Xalq cholgʻulari boʻlimi bitiruvchisining ilmiy tashabbusini mazkur kafedra oʻqituvchilari qoʻllab-quvvatlashdi va uning aspiranturaga oʻqishga kirishi ijobiy eʼtirofga sabab boʻldi. 1986 – 1990 yillarda aspiranturadagi oʻqish davomida A.Toshmatovaning izlanishlari samarali boʻldi, u ilmiy izlanish asoslarini oʻzlashtirdi, xalq cholgʻulari orkestri ijrochiligi kontsepsiyasi va metodologiyasini ishlab chiqdi. Aspirant konservatoriya hayotida faol ishtirok etdi, musiqiy tanqidchilik boʻyicha kengash aʼzosi boʻldi, ilmiy-nazariy konferensiyalarda

ishtirok etdi, respublika vaqtli matbuoti va ilmiy to'plamlarda maqolalari chop etildi.

Aspiranturada dissertatsiya ustida ishlash bilan bir qatorda A.Toshmatova ijrochilik faoliyati bilan ham muntazam shug'ullandi. U bir vaqtning o'zida O'zbekiston filarmoniyasining To'xtasin Jalilov nomidagi xalq cholg'u orkestrida afg'on rubobchilar guruhi konsertmeysteri, shuningdek yakkanavoz ijrochi sifatida chiqishlar qildi. Azatgul afg'on rubobida konsertlar va shu cholg'u uchun yozilgan turli kuylarni orkestr jo'rligida ijro etdi. Ma'ruzali-konsertlar, maktab o'quvchilari uchun abonement konsertlarni olib boruvchisi sifatida ma'ruzachi-ma'rifatchilik iqtidorini ham namoyish etdi.

Orkestr tarkibida ishlash ijrochilik uslublari, musiqiy asarlar shakllarini chuqur anglab etish, orkestr partituralarini ipidan-ignasigacha o'zlashtirishga yordam berdi. Ilmni amaliyot bilan uyg'unlikda olib borish dissertatsiya ustida ishlash samaradorligini ta'minladi, ilmiy farazlarni muvaffaqiyatli hal etishga qo'l keldi. Dissertasiyaning asosiy g'oyasini amalga oshirish uchun qo'llanadigan ilmiy-tadqiqot metodologiyasini o'zlashtirishda A.Toshmatova o'zining noyob mehnatsevarligi, qat'iyati, maqsad sari to'xtovsiz harakati, kuchli iroda va tashabbusini namoyon qildi.

A.Toshmatovanning 17.00.02 "Musika san'ati" mutaxassiligi bo'yicha "O'zbekistonda takomillashtirilgan xalq cholg'ularida orkestr ijrochiligining shakllanish va rivojlanish muammolari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi – musiqashunoslikdagi birinchi tadqiqot bo'lib, unda professional orkestr jamoalarining faoliyati, O'zbekiston kompozitorlari asarlarining chuqur tahlili, orkestrlarning repertuari, dirijyorlarning ijrochilik talqinlari yoritilgan. Dissertatsiyaning 1998 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Maxsus D.092.11.11. Kengashida muvaffaqiyatli himoya qilinishi o'zbek milliy orkestr madaniyatida sifat jihatidan yangi davr va yangi yo'nalishni ochib berdi.

Ma'lumki, ilm sohasida birinchilardan bo'lib yangi mavzuga qo'l urish – bu misli ko'rilmagan miqyosdagi tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish va o'xshashi mutlaqo mavjud bo'lmagan ko'plab murakkab muammolarni to'g'ri anglab yetishdan iboratdir. A.Toshmatova tadqiqotchi sifatida xalq cholg'ulari orkestri madaniyatini o'rganishda haqiqiy musiqashunoslikka xos bo'lgan yondashuvni namoyon qildi va bu yo'nalishda u yaxshi natijalarga erishdi. Uning dissertatsiyasi kelajakda xalq cholg'ulariga bag'ishlangan tadqiqotlarga turtki bo'ldi. Binobarin, 2008 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti qoshidagi Maxsus D.092.11.11. Kengashida 17.00.02 – "Musika san'ati" mutaxassisligi bo'yicha Saidiy Said Boltazodaning "Markaziy Osiyo madaniyatida

zarbli cholg'ular (o'zbek va tojik musiqiy an'analari misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi, unda A.Toshmatova ikkinchi opponent sifatida qatnashdi. Shuningdek, Norbo'taev Yo'ldosh Norbo'taevichning 17.00.02 – "Musika san'ati" mutaxassisligi bo'yicha "O'zbek milliy cholg'ulari zamonaviy musika ijodiyotida". Bu yerda ham A.Toshmatova ikkinchi opponent bo'ldi. Shu bilan birga Ergasheva Gulchehra Turobovna tomonidan "Chang musika cholg'usi: tarix va zamonaviylik" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoya qilindi. Shu tarzda A.Toshmatovanning ilm sohasidagi tashabbusi xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining turli yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borayotgan yosh olimlar tomonidan davom ettirilmoqda.

Tadqiqotchilikdagi qunt bilan olib borilgan izlanishlar A.Toshmatova ilmiy ishlarining mavzusini muntazam kengaytirib bordi, umuman ilmiy ishlarining soni 50 tadan ortiq. Ayniqsa uning uch (o'zbek, rus va ingliz) tilda rangli tasvirlarda chiroyli va yuksak badiiy did bilan tuzilgan "Musika cholg'ulari muzeyining katalogi" e'tirofqa loyiq. O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi "Milliy cholg'u" muzeyi fondida saqlanayotgan cholg'ular aks ettirilgan ushbu risola so'z boshisida A.Toshmatova shunday yozadi: "Muzeyning ishga tushirilishi o'zbek musika san'atini o'rganish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi". Haqiqatan ham shunday.

Samarqand shahrida o'tkazilgan "Sharq taronalari" VIII Xalqaro musika festivali doirasida "Musika cholg'ulari muzeyi katalogi"ning taqdimoti va o'zbek milliy cholg'ularining ko'rgazmasi festival ishtirokchilarining tahsiniga sazovor bo'ldi hamda xorijiy mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi.

Ko'p yillir davomida A.Toshmatova "Milliy cholg'u" ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasining direktori lavozimida ishladi. Mazkur jamoa tinmay izlanuvchi va yangilik yaratuvchi haqiqiy eksperementatorlar, kashfiyotchilardan tashkil topgan. Laboratoriya ilmiy xodimlari va sozgarlari tomonidan yaratilgan milliy cholg'ular fikrimizga dalil bo'la oladi.

Professor A.Toshmatova "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida samarali mehnat qilib kelmoqda. U o'zi ishlab chiqqan "Ijrochilik san'ati tarixi", "Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti" va "Ansaml bilan ishlash uslubiyoti" fanlaridan talabalarga saboq beradi, talaba va magistrnlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qiladi.

A.Toshmatova xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etadi. Uning nomi nafaqat respublikada, balki xorijiy davlatlarda ham taniqli. A.Toshmatova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalarni

rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi grantlarining sohibasidir. Hozirgi kunda A.Toshmatova O‘zbekiston va Sharq xalqlari, xususan Yaponiya, Hindiston, Koreya, Xitoy va boshqa mamlakatlar milliy cholg‘u madaniyatlarining o‘zaro tarixiy munosabatlarini tadqiq qilish g‘oyasi ustida ish olib bormoqda.

O‘zbek xalq cholg‘ularini modifikasiyalashtirish masalalari A.Toshmatovani juda ko‘p yillardan beri qiziqtirib keldi. U “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasining direktori lavozimida ishlash davomida cholg‘ularni modifikasiyalashtirishda g‘oya muallifi sifatida bevosita rahbarlik qilgan. Natijada laboratoriyada olib borilayotgan ishlarni nazariy jihatdan chuqur o‘rgandi va tahlil qilib bordi. Buning samarasi o‘laroq O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Bir martalik ilmiy kengash 2023 yil 20 aprelda A.Toshmatovani ixtiroga patent asosida dissertatsiya himoyasisiz fan doktori (DSs) darajasiga loyiq topdi.

Musiqqa san‘atiga sidqidildan berilgan san‘atshunoslik fanlari doktori, professor Azatgul Toshmatova o‘zbek musiqqa fani rivoji uchun yosh olimlar, mahoratli sozandalar, davr talabiga javob beradigan pedagoglarni tarbiyalashga o‘zining bor kuchi, iqtidori, bilim va tajribasini bag‘ishlamoqda. Uning ko‘p qirrali ilmiy va ijodiy faoliyati bugungi kunda o‘tib kelayotgan yosh avlod uchun ajoyib namuna bo‘lib xizmat qilayapti.

Xulosa: Bugungi kunda Respublikamiz xalq xo‘jaligining barcha sohalarida tub burilishlar sodir bo‘lmoqda, barcha yo‘nalishlarda yangilanish, sifat darajasini ko‘tarishga e‘tibor qaratilayapti. Albatta, bu o‘zgarishlarni amalga oshirishda mutaxassis olimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolada so‘z yuritilgan A.Tashmatovaga o‘xshash o‘z ishining fidoyilari faoliyati yoshlarga o‘rnak bo‘lishi bilan bir qatorda ularni yangi marralarni zabt etishlarida yaxshi ma’noda turtki bo‘lishiga umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Народные музыкальные инструменты и инструментальная музыка. Часть 1. - М.: 1987.
2. Ташматова А. Каталог музея музыкальных инструментов. Ташкент, 2006.
3. Toshmatova O. Xalq cholg‘ulari antologiyasi // - T.: “Musiqqa”. – 2014.
4. Tashmatova A. Ijrochilik san‘ati tarixi // - Toshkent: 2017.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIW SHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN‘ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIW	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

